



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



JADID MILLIY TAFAKKURI TA'LIMOTINING ZAMONAVIY PROGRESSIV XUSUSIYATLARI

Ismoilova Shahzoda Zafarjon qizi

*Farg'ona davlat universiteti "Milliy g'oya ma'naviyat asoslari va
huquq ta'limi" yo'nalishi 2-kurs talabasi.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada jadidchilik harakatining milliy tafakkur taraqqiyotidagi o'rni va uning zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'siri yoritilgan. Maqolada jadidlarning ilm, ma'rifat, erkin fikr va yangilanish g'oyalari tahlil qilinib, ularning bugungi kunda yosh avlodni ma'naviy yetuk, tafakkurli va vatanparvar qilib tarbiyalashdagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, jadid pedagogikasining progressiv xususiyatlari — milliy qadriyatlarga tayanish, dunyoviy bilimlarni targ'ib etish, zamon bilan hamnafas bo'lish kabi jihatlar asoslab ko'rsatilgan. Tadqiqot natijasida jadidlar merosining hozirgi ta'lim tizimi uchun dolzarbligi hamda ularning g'oyalari zamonaviy pedagogika bilan uzviy bog'liqligi isbotlab berilgan.*

Kalit so'zlar: *jadidchilik, milliy tafakkur, ma'rifat, ta'lim-tarbiya, zamonaviy pedagogika, progressiv g'oyalar, yosh avlod, milliy qadriyatlar, yangilanish, ma'naviyat.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается роль движения джадидов в развитии национального мышления и его влияние на современный процесс образования и воспитания. Анализируются идеи джадидов о науке, просвещении, свободомыслии и обновлении, раскрывается их значение в формировании духовно зрелого, мыслящего и патриотичного молодого поколения. Также обоснованы прогрессивные особенности джадидской педагогики — опора на национальные ценности, пропаганда светских знаний и стремление идти в ногу со временем. В результате исследования доказана актуальность наследия джадидов для современной системы образования и тесная связь их идей с современной педагогикой.*

Ключевые слова: *джадидизм, национальное мышление, просвещение, образование и воспитание, современная педагогика, прогрессивные идеи, молодое поколение, национальные ценности, обновление, духовность.*

Kirish: XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan jadidchilik harakati o'z davrining eng ilg'or ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy oqimlaridan biri bo'ldi. Jadidlar millatni uyg'otish, xalqni jaholat va qoloqlikdan xalos etish, yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirishni bosh maqsad qilib qo'yganlar. Ularning asosiy g'oyasi – ilm, ma'rifat, tafakkur erkinligi va milliy o'zlikni anglash orqali jamiyatni rivojlantirish edi.

Bugungi globallashuv sharoitida jadidlarning ilg'or qarashlari o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q, aksincha, zamonaviy ta'lim va tarbiya tizimida yangicha mazmun kasb etmoqda. Ularning ta'lim haqidagi fikrlari, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



zamonaviy bilimlarni uyg‘unlashtirish tamoyillari hozirgi pedagogik yondashuvlar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Mazkur maqolada jadid milliy tafakkuri ta‘limotining mohiyati, uning zamonaviy progressiv xususiyatlari, shuningdek, hozirgi yoshlar tarbiyasidagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, jadid pedagogik g‘oyalarining bugungi ta‘lim jarayoniga integratsiyasi va ularning milliy ma‘naviyatni yuksaltirishdagi roli yoritib beriladi.

Jadid tafakkurining progressiv xususiyatlari hozirgi O‘zbekiston taraqqiyotida ham o‘z ifodasini topmoqda. “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasining asosida ham jadidlar ilgari surgan ma‘naviy yuksalish, ta‘lim-tarbiya, milliy uyg‘onish tamoyillari mujassamdir. Prezident Shavkat Mirziyoyevning: Jadidlar g‘oyasi — Yangi O‘zbekiston strategiyasi bilan har tomonlama uyg‘un va hamohang”¹— degan so‘zlari jadidchilik merosining bugungi kunda ham hayotiy ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Bugungi globallashuv davrida jadidlar olib borgan harakatlarini chuqurroq va izchil o‘rganishimiz davr talabi bo‘lib kelmoqda.

Tadqiqotchi Adeeb Khalid o‘zining “The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia”² asarida ta‘kidlaganidek, jadidchilik – bu shunchaki diniy islohot emas, balki madaniy va siyosiy yangilanish harakatidir (Khalid, 1998). U Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi sharoitida shakllanib, musulmon jamiyatining ichki yangilanishini ko‘zlagan. “Usul-i jadid” (yangi usul) deb atalgan ta‘lim tizimi orqali maktablarda fonetik o‘qitish, geografiya, tarix, matematika kabi dunyoviy fanlarni kiritish yo‘lga qo‘yilgan.

Jadidlar nazarida haqiqiy islom ma‘naviyati ilm, tafakkur va mehnat bilan uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi. Shu bois ular diniy mutaassiblikka qarshi chiqib, “ilm – imonning ajralmas qismi” degan tamoyilni ilgari surganlar. Ularning qarashlarida ma‘rifatparvarlik, milliy uyg‘onish va modernizatsiya g‘oyalari uyg‘unlashgan (Bazarbayev & Adilbekova, 2012).³

Adeeb Khalid o‘z tadqiqotida jadidchilikni nafaqat ta‘limiy, balki siyosiy va madaniy islohotlar tizimi sifatida tahlil qiladi. Muallifning bu yondashuvi ilmiy jihatdan muhim, chunki u jadidlarni shunchaki diniy islohotchi emas, balki milliy uyg‘onish g‘oyasining targ‘ibotchilari sifatida ko‘rsatadi. Shu jihatdan, Khalidning qarashlari jadidlar harakatining asl mohiyatini kengroq kontekstda anglash imkonini beradi.

XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida Jadidchilik harakati uyg‘onish davrining muhim bosqichi sifatida namoyon bo‘ldi. Jadidlar milliy tafakkur ta‘limoti, ozodlik va ijtimoiy adolatlilik, milliy ma‘rifatparvarlik kabi g‘oyalari bilan Turkiston xalqlarining kelajagiga katta ta‘sir ko‘rsatdi. Jadidchilikning asosiy maqsadlari quyidagi yo‘nalishlarga qaratilgan edi. Bular: milliy tafakkur va ta‘lim tizimini yangilash, xalqni ilm-fan va ma‘rifat bilan tanishtirish. O‘zbek xalqining tarixiy, madaniy, ma‘naviy qadriyatlarini saqlagan holda, uni zamonaviy ilmiy yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish. milliylikni saqlash, dunyoqarashni kengaytirish va global bilimlarga yo‘naltirish.

1. Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 22-dekabr kuni Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashi yig‘ilishida aytib o‘tdi.

2. Khalid, Adeeb. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. University of California Press, 1998.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Jadidlar ta’limni ilm-fan va ma’rifatga asoslashga katta e’tibor qaratgan. Ular o‘quv yurtlarini ochish orqali xalqni ilm-fan bilan tanishtirish, yangi pedagogik metodlarni joriy etishgan. Masalan “Usul-i-jadid” Yangi usul maktablari.

“Yangi usul maktablari” — XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyo hududlarida jadidlar tomonidan ochilgan. Ular an’anaviy maktablar madrasalardan farq qilgan, chunki o‘quv jarayoni interaktiv va zamonaviy pedagogik metodlarga asoslangan edi. Yangi maktablarning asosiy maqsadi: xalqni ilm-fan, matematika, tabiiy fanlar, tarix bilan tanishtirish bo‘lgan. Jadid maktablari faqat dunyoviy fan bilan cheklanib qolmay ta’lim tizimi shaxsni rivojlantirishga, tanqidiy fikrlashga, xalqni ongli fuqaroga aylantirishga qaratilgan edi.

Jadidchilik harakati ta’lim tizimini yangilashga harakat qilib, eski an’anaviy maktablar (madrasalar) ni modernizatsiya qilishga intildi. Gasprali o‘zining «Tug‘rislik» («Tercüman») ⁴ gazetasida bu haqda fikrlar bildirib, yangi pedagogik tamoyillarni keng targ‘ib qildi. U ta’limni faqat diniy bilimlardan iborat bo‘lmasligi kerakligini va zamonaviy fanlarni o‘rgatish zarurligini ta’kidladi. Jadidchilikning eng muhim g‘oyalaridan biri — o‘quvchilarga mustaqil fikrlashni o‘rgatish, ular ongini rivojlantirish edi.

“Usul-i-jadid” interfaol metodlar, savol-javob, klaster va “aqliy hujum” kabi metodlarni ilgari surgan. Zamonaviy progressiv xususiyatlaridan biri shundaki, ilm-fanni milliy ma’naviyat bilan uyg‘unlashtirish, shaxsni tanqidiy fikrlashga o‘rgatish edi. Ta’lim nafaqat bilim berish, balki xalqni zamonaviy jamiyat a’zosiga aylantirishga yo‘naltirilgan edi. Shu bilan birga, ilm-fan va ma’rifatni targ‘ib qilish orqali jadidlar milliy ongni va madaniyatni rivojlantirishga xizmat qilgan.

Bugungi kunda O‘zbekiston ta’lim tizimi jadidlar ilgari surgan tamoyillarga tayanadi. Shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim, interfaol metodlar, kreativ fikrlash, tanqidiy yondashuv kabi pedagogik tamoyillar — bularning barchasi jadidchilikdan o‘z ildizini oladi. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o‘quvchining fikrlash doirasini kengaytiruvchi, mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgatuvchi shaxs sifatida qaraladi.

Jadidchilik milliy ma’naviyatning tiklanishi, yosh avlodni ijtimoiy faol va tafakkurli qilib tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. Ularning pedagogik g‘oyalari ta’lim islohotlarida, dars jarayonlarida, o‘quv dasturlarida o‘z aksini topmoqda.

Jadidchilik harakatining yirik namoyandalaridan biri Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” nomli asari orqali milliy ma’naviyat, axloq va tarbiya masalalariga zamonaviy yondashuvni ilgari surdi

Ushbu asar jadid milliy tafakkurining ma’naviy-falsafiy dasturi bo‘lib, unda yosh avlodni ilm, mehnat, vatanparvarlik va axloqiy poklik ruhida tarbiyalash g‘oyalari ilgari surilgan.

Avloniy ta’limotida insonning komillikka erishuvi axloq, bilim va mehnat bilan chambarchas bog‘liq. U shunday yozadi:

“Ilm inson uchun g‘oyat kerakli bir narsa, chunki ilm dunyoni yoritadigan chiroqdur.”





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Bu fikr jadidchilik harakatining asosiy tamoyillaridan biri — ilm va ma’rifat orqali millatni uyg‘otish g‘oyasini yaqqol ifodalaydi. Avloniy nazdida jaholat — xalqni orqaga tortuvchi kuch, ilm esa ozodlik va taraqqiyotning garovidir.

Shuningdek, u asarda tarbiya masalasiga alohida urg‘u beradi: “Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat masalasidir.”

Bu so‘zlar jadid pedagogikasining falsafiy mohiyatini ochib beradi. Avloniyning fikricha, tarbiya shunchaki ma’lumot berish emas, balki insonni ma’naviy va ijtimoiy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllantirish jarayonidir.

Avloniy ta’limotining yana bir progressiv jihati — axloqni milliy qadriyatlar bilan bog‘lash. U yoshlarni millatni sevishta, o‘zligini anglashga, halollik, odob, mehnatsevarlik va vatanparvarlikka chorlaydi.

Jadidchilik harakati nafaqat tarixiy, balki ma’naviy-ma’rifiy qadriyat sifatida bugungi avlodni tarbiyalashda katta o‘rin tutadi. Shu bois jadidlar merosini yoshlar orasida keng yoyish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Eng avvalo, bu jarayonni tizimli va samarali yo‘lga qo‘yish uchun ilmiy, madaniy hamda ta’limiy tashabbuslarni bir yo‘nalishda uyg‘unlashtirish zarur.

Birinchidan, “Jadid merosi haftaligi” kabi muntazam ravishda o‘tkaziladigan tadbirlar yoshlarning tarixiy xotirasini mustahkamlashda muhim omil bo‘la oladi. Bunday haftaliklar davomida o‘quvchilar va talabalar jadidlar hayoti, ularning ijtimoiy-siyosiy qarashlari, pedagogik faoliyati va ma’rifat uchun kurashdagi xizmatlarini chuqur o‘rganadilar. Shu bilan birga, bu tadbirlar davomida ilmiy konferensiyalar, adabiy kechalar, insholar tanlovi va sahna ko‘rinishlari tashkil etilishi yoshlarning tafakkurini kengaytiradi hamda ularni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalaydi.

Shunday yo‘l bilan jadidchilik nafaqat tarix darslarida, balki turli fanlar kesimida ham amaliy tarzda o‘rganiladigan yo‘nalishga aylanadi. Eng asosiysi, bu kabi haftaliklar orqali yoshlar jadidlarning “millatni uyg‘otish”, “ilm bilan kamol topish” kabi g‘oyalarini zamonaviy talqin asosida qabul qiladi.

Ikkinchidan, “Jadidlar izdoshlari” kabi yoshlar klublarini tashkil etish ham jadidchilik g‘oyalarini keng yoyishning muhim shakllaridan biridir. Bunday klublar o‘quvchi va talabalarning ilmiy salohiyatini oshirish, mustaqil fikrlash va tahliliy yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Klub faoliyati doirasida jadidlar hayotiga bag‘ishlangan ochiq muloqotlar, mushoiralar, ma’naviy davra suhbatlari va ma’ruza tanlovlari o‘tkazilishi mumkin. Bu jarayon yoshlarni nafaqat o‘tmishni o‘rganishga, balki hozirgi davr muammolariga ham jadidlarcha yechim izlashga undaydi.

Shuningdek, klub faoliyatini raqamli platformalar bilan bog‘lash orqali ularning ta’sir doirasini kengaytirish mumkin. Masalan, “Jadidlar izdoshlari” onlayn sahifasi orqali maqolalar, intervyular va video lavhalar e’lon qilinib, keng auditoriyaga yetkaziladi. Bu usul yoshlarning ilmiy va ijodiy faolligini oshirish bilan birga, jamiyatda jadidchilik g‘oyalarini zamonaviy ruhda targ‘ib etish imkonini beradi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Umuman olganda, “Jadid merosi haftaligi” va “Jadidlar izdoshlari” kabi tashabbuslarni birlashtirgan holda amalga oshirish, jadidchilik harakatini faqat tarixiy hodisa sifatida emas, balki bugungi ma’naviy hayotning ajralmas qismi sifatida namoyon etishga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida yosh avlodni milliy o‘zlikni anglash, mustaqil fikrlash va Vatan ravnaqi yo‘lida fidokorlik ruhida tarbiyalashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Xulosa: Jadidchilik milliy tafakkuri ta’limoti, o‘zining zamonaviy va progressiv xususiyatlari bilan ajralib turadi. U yosh avlodni ijtimoiy faol, tafakkurli va vatanparvar qilib tarbiyalashni maqsad qilgan, shuningdek, ilm va ma’rifatga bo‘lgan e’tiborni oshirishga xizmat qilgan. Jadid pedagogik g‘oyalari bugungi ta’lim tizimida ham dolzarb bo‘lib, innovatsion metodlarni qo‘llash va yoshlarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatishda muhim ahamiyatga ega. Shu bois, Jadidchilik harakati nafaqat tarixiy meros, balki zamonaviy ta’lim rivojini boyituvchi asos sifatida qadrlanishi lozim.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 22-dekabr kuni Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashidagi nutqi.
2. Khalid, Adeeb. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. University of California Press, 1998. <https://www.ucpress.edu/books/the-politics-of-muslim-cultural-reform/paper>
3. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Ma’naviyat, 1992.
4. Bazarbayev M va Adilbekova G. (2012). Jadidchilik harakati va uning Turkiston tarixidagi o‘rni. Qozog‘iston Milliy universiteti nashriyot. <https://sjcascourier.com/index.php/history/article/download/1403/1230>
5. <https://uzpedia.uz/pedia/tarjimon#:~:text=TARJIMON%E2%80%9D%20%E2%80%94%20Boqcharoyda%20Ismoil%20Gasprinskiy%20muharrirligida%20chop,mahalliy%20va%20rus%20tilida%20bo'lib%2C%20biri%20ikkinc>